

ERTA YOSHDAGI VA BOSHLANG`ICH SINF YOSHDAGI BOLALARDA XORIJIY TILLARNI MUKAMMAL O`RGATISH VA TA`LIM OLISH YOSHI

Abdusalomova F.X.

O`zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar: Yuldasheva S.F.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7438106>

Annotatsiya. Mazkur maqolada erta yoshdagи bolalarda tillarning o`rganish ta`siri, samarasi, oson va qulay usullari, qanday qilib ko`p millatli bolalar bilan ta`lim olishi va ta`lim olish yoshi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so`zlar: kichik yoshdagи bolalar, tarbiyachilar, tillar, turli qiziqarli o`yinlar, qiziqarli va samarali metodlar, vizual o`yinlar, amaliy mashg`ulotlar, video darslar, multfilmlar, turli tildagi she`rlar.

ВОЗРАСТ ОТЛИЧНОГО ПРЕПОДАВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ У ДЕТЕЙ РАННЕГО И МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В этой статье представлена подробная информация о воздействии, эффективности, простых и удобных методах изучения языка у детей раннего возраста, о том, как учиться с полиэтническими детьми и о возрасте обучения.

Ключевые слова: дети раннего возраста, воспитатели, языки, различные интересные игры, интересные и эффективные методики, наглядные игры, практические занятия, видеоуроки, мультифильмы, стихи на разных языках.

AGE OF EXCELLENT TEACHING AND LEARNING OF FOREIGN LANGUAGES IN CHILDREN OF EARLY AND PRIMARY SCHOOL AGE

Abstract. This article provides detailed information on the impact, effectiveness, simple and convenient methods of language learning in young children, how to study with multi-ethnic children and the age of learning.

Keywords: young children, educators, languages, various interesting games, interesting and effective methods, visual games, practical exercises, video lessons, cartoons, poems in different languages.

“Ta`lim kelajak pasportidir, chunki ertangi kun unga bugun tayyorlanayotganlarniki” deb ta`kidlaydi
Malcolm X.

Bilamizki, hozirgi kunda juda ko`plab mamlakatlар ta`lim sohasiga katta e`tibor qaratmoqda. Chunki, ta`lim – bu insonni komillikka va muvaffaqiyatga yetaklovchi asosiy yo`l hisoblanadi. Har bir inson borki, tug`ilganidan to umrining oxirigacha ilm izlaydi va ana shu narsa uni va uning mamlakatini qay darajada ilm – fanda o`z o`rnini borligini bildiradi. Hozirgi vaqtga kelib, dunyoning 80 foiz mamlakatlari o`z ta`lim yo`nalishida til o`rganish va o`rgatish bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ana shulardan, eng dolzarb masalalardan biri, kichik yoshdagи bolalarda xorijiy tillarni mukammal o`rgatishdir. Ota – bobolarimiz aytganidek “Til bilmoq – el bilmoq” demakdir. Til – bu jamiyat ko`rkidir. Shu sababli ham tilni erta yoshdan o`rganish – bu ko`plab mamlakatlarni, jamiyatlarni o`rganish bilan barobardi. Hatto bunda UNESCO o`z xatti – harakatlari bilan yosh avlodga til bilishda o`z o`rnini sezilarli darajada ko`rsatib kelmoqda. Hamda kichik yoshdagи bolalar o`zlarining dunyo qarashlari va

fikrlash qobiliyatlarini til orqali qo`lga kiritayotganliklari bilan ajralib turishadi. Bu esa ularning samarali ta`lim olayotganliklaridan dalolat beradi.

Erta yoshdagi bolalarda ko`p tillarning o`rganish ta`siri va samarasи haqida so`z yuritadigan bo`lsak, dunyoda juda ko`plab bolalar turli til o`rganish orqali ko`p do`stlar orttirishadi va bu ular uchun foydali hisoblanadi. Ayniqsa, kichik yoshdagи bolalarda ilmiga bo`lgan muhabbatи va intiluvchanligi ko`p bo`lishiga qaramay, ularda miya faoliyati tez ishlashi bilan farqlanadi. Ushbu sohaning eng muhim qismlaridan biri – bu multilingualism – ko`p tillilikdir. Mazkur yo`nalishda bir qancha qobiliyatlarni bolalar o`zlashtirishadi. Masalan, social skills – ijtimoiy qobiliyatlar bo`lib, bunda bir o`quvchi ingliz, rus, fransuz til vakillari bilan muloqot qilsa, ular bir – birlarining fikrlari orqali muloqot qilish qobiliyatlarini o`stirishadi. Ikkinchisi, deep thinking – chuqur o`ylash qobiliyati orqali dunyo qarashini, miya faoliyati tezligini oshirishga yordam beradi. Bola qancha ko`p til o`rgangani sari, ularda fikrlash va miyaning analiz – sintez qobiliyatları ortib boraveradi. Yana shuni ta`kidlab o`tish joizki, ular birdaniga biror yangi so`zni to`rt tilda o`rganish imkoniyatlariga ega bo`ladilar. Misol uchun, mushuk – cat – chat - кошка. Ko`rib turganingizdek, bu ular uchun til o`rganishda katta imkoniyatlar beradi. Natijada, ularda ko`p tillilik qobiliyatları oshadi.

Barchamizga ma`lumki, tilni metodlar bilan o`rganish va o`rgatish ilm – fanga ancha quayliklar bermoqda. Bu esa biz uchun tez va oz fursatda qiyinchiliklarsiz, ma`lum bir qolipda o`rganishga yo`l beryapti. Hozirgi kunda juda ham ko`p til o`rgatish tamoyillari mavjud bo`lib ular quyidagilar:

1. Eshitish metodi
2. Vizual darsliklardan foydalanish metodi
3. O`yin metodi
4. She`r yod olish metodi

Listening – eshitish tamoyili – bu juda ham unumdar bo`lgan usullardan biri hisoblanadi. Bunda bolalar turli xil musiqalar, audiolardan foydalanadi. Masalan, berilgan mavzu tananining tashqi organlari haqida bo`lsa, ular audio eshittirish orqali so`zlarni eshitishadi va qaytarishadi. Yana ushbu metodga vizual tamoyili ham bog`liq bo`lib, unda ular ekran orqali yoki o`qituvchining qo`l harakatlari orqali tananining organlarini qo`llari bilan ushlab, eshitayotgan so`zlariga qarab topishadi. Qo`shimcha qilib aytganda, ular video ko`rish bilan birga eshittirish darslarini ham olib borishadi. Qo`l – hand – main – рука.

Tilni o`yinlar bilan o`rganish metodi bu juda keng tarqalgan metodlardan hisoblanib, deyarli dunyoning barcha mamlakatlari foydalanib kelmoqda. Chunki, chet tillarni o`rganishdan eng asosiy maqsad – bu so`z yod olishdir. Shuning uchun ham hozirgi metodimiz shunga asoslanadi. Masalan, bu o`yinda savat to`la sun`iy mevalar bo`lib, ularni bolalar birma – bir olib, ularning turli tillarda nomlanishlarini aytishadi. Olma – apple – pomme – яблоко.

She`r yod olish metodi – bu juda keng tarqalgan va mahsuldor tamoyildan biri hisoblanib, u asosan so`z yodlash uchun juda foydalidir. Agar buni bir tilda misol sifatida ko`rib chiqadigan bo`lsak, bu orqali aniqroq tushunchaga ega bo`lasiz. Misol uchun yosh bolalarga oyda necha kun borligi haqida savol bersak, ular deyarli har doim chalkashib ketadilar. Shu sababli quyidagi she`rni yod olish orqali ularda to`liq ma`lumot va ko`nikma paydo bo`ladi.

- | | |
|--|---|
| “Thirty days have September,
April, June and November,
All the rest have thirty – one, | “O`ttiz kun bor sentyabr,
Aprel, Iyun va Noyabr,
Qolganlarning hammasida o`ttiz bitta |
|--|---|

February has twenty – eight alone.” Fevrarda yigirma sakkiz bor.”

Ushbu barcha prinsiplar juda ham samarali va foydali deb hisoblanib, hozirgi kunda barcha MTMlarga tadbiq etilmoqda.

Ko`p millatli bolalar bilan til o`rganishning qanday foydali tomonlari bor deb o`ylaysiz? Siz ushbu savolga javobni quyidagi ma`lumotlar orqali bilib olasiz. Dunyoda mamlakatlar borki, ularning tarkibi faqatgina o`z millati bilan tashkil etibgina emas, balki, ko`p millatlar bilan hamjihatlikda hayot kechirishadi. Hozirgi vaqtga kelib juda ko`plab ota – onalar o`z farzandlarini multicultural – ko`p millatli maktabgacha ta`lim muassasasiga til o`rganishlari uchun bermoqda. Misol qilib keltirganda, bir MTMda o`zbek, rus, koreys, ozarbayjon, tojik, millatiga mansub bo`lgan yosh avlodlar ta`lim tayyorlov muassasasida birgalikda bilim olmoqda va ularga g`amxo`rlik qilinmoqda. Ular asta – sekinlik bilan dunyo qarashlarini boyitmoqda. Eng muhimi shundaki, har bir MTMda bir necha tilni biluvchi murabbiylar ishlashadi. Yana kichik yoshdagagi bolalar ustida olib borilayotgan bir qancha tadqiqot ishlari shuni ko`rsatyaptiki, bir millat vakili boshqa millat vakili tilini, o`sha millat vakilining harakatlari, imo – ishoralari, talaffuzi orqali tilni qiyalmay, erkin, do`stona o`rganamoqda. Bu esa yosh bolajonlarga qulayliklar tug`diryapti. Bu ular uchun tilni qo`rquvsiz, ikkilanishsiz o`rganishi uchun xizmat qiladi. Bu kelajagimiz yorqin va porloqligini bildiradi.

Ta`lim – bu kelajak!

“Ta`lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. Ta`lim O`zbekiston Respublikasida jamiyatni ijtimoiy – iqtisodiy, ma`naviy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi hisoblanadi”. - O`zbekiston Respublikasining qonuni. Darhaqiqat, ta`lim – bu bizning asosiy huquqlarimizdan biri bo`lib, undan erkin foydalanish huquqiga egamiz. Avvalo, O`zbekistonda ta`lim olish yoshi 3 – yoshdan boshlanadi. “Davlat bog`chalariga 3 – yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan bolalar qabul qilinadilar. Xususiy bog`chalarga qabul qilish yoshi va tartibi ushbu bog`chalar tomonidan mustaqil belgilanadi.” – O`zbekiston Respublikasining qonuni. Ertaposhdan bolalarni ilmga qiziqtirish, ulardagagi aqliy qobiliyatini rivojlantirish maqsadi ilgari surilgan bo`lib, unda asosan, O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning biz yosh avlodlarga berayotgan diqqat e`tibori va yaratayotgan qulayliklari kattadir. Bepul ta`lim olish va uni taqdbiq etish imkoniyatlarini prezidentimiz keng yaratib bermoqda. Mavzuning dolzarbli shuki, erta yoshdan ta`lim olish – bu kelajak uchun yangi eshiklarni ochish demakdir. Ayniqsa, kichik yoshdagagi bolalarda xotiraning kuchliligi katta yoshdagagi bolalarga nisbatan farqlanadi. Masalan, boshqa tilini o`rganayotgan yosh bolalar miyasining eslab qolish tezligi tufayli ular ikkinchi tilini tez va oson o`zlashtirishadi. Shuning uchun ham ta`limni erta yoshdan tadbiq qilish - bu asosiy maqsad sanaldi va amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, eng asosiy maqsad, kichik yoshdagagi bolalarda xorijiy tillarni erta yoshdan samarali usullar bilan o`rgatish va qiziqarli o`yinlar orqali tilga qiziqtirish – bu tilni tez va oson o`rganishi uchun xizmat qiladi. Bu esa ularni buyuk kelajak farzandalari va vakillari bo`lib yetishishida tayanch vazifasini o`taydi.

REFERENCES

1. Jalolov J. Chet tili o`qitish metodikasi. – T.: “Toshkent”, - 111-bet
2. Galskova N.D Nikitenko Z.N Chet tillarni o`qitish nazariyasi va amaliyoti. Boshlang`ich maktab: uslubiy qo`llanma: - M: Airis – press
3. <https://prep.uz/news/umumiyo/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari>
4. Lex uz on-line. O`zbekiston Respublikasining qonuni.